

Suyganlarim, Suyunchi Bering

Tojidinov Toshpo'lat Shokirjon o'g'li¹

Abstract: This article is written as a response to the article by literary critic Bahodir Karim. It expresses a different attitude to Eshqobil Shukur's poem "Suyunchi" than the author of the article. Based on the analysis, it is determined that in the analysis of the poem, it is of great importance to take into account the time period in which the work was created.

Ushbu maqola vijdon azobidan andak bo'lsa-da o'zni holi his qilish maqsadi o'laroq yozilmoqda. Filolog mutaxassis, bo'lajak adabiyotshunos(har qalay diplomda shunday yozilgan) sifatida adabiy va ilmiy jarayon mutolaasida sustkashlik qilayotganim shu azobga sabab. ("Sharq yulduzi" jurnalining 9\2022-yil sonini endi(20.04.2023) mutolaa qilgandan keyin o'zimga yana qanday baho berishim mumkin.)

Ammo shunday esa-da, jurnaldagi ustoz Bahodir Karimning "Ko'nglimni toshga yordim" maqolasi adabiyot haqidagi ojizona qarashlarimni bir qo'r qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Shuning o'ziyoq maqola muallifining, o'quvchi sifatida mening umumiy maslagimizni – ijod va mutolaaning muhim funksiyasini ertami-kechmi ro'yobga chiqardi.

Maqolada shoir Eshqobil Shukur shaxsiyati va she'riyati xususida muallif ta'kidlagan "*Ilmiynamolik nag'malari va kishanlaridan xolos bo'lish niyatida boshqacha uslubiy yo'llardan yurmoq istaydi ko'ngil (1.109-110)*" maqsadining ijobati o'laroq samimiy, sof ko'ngil kechinmalari ifoda qilingan.

Maqoladagi E.Shukur qalamiga mansub "Suyunchi" she'ridan keltirilgan parchaga muallifning mendan farqli yondashuvi shu she'r xususidagi qarashlarimni tahrirlashga shu bahona she'r tahlilidagi qarashlarimga aniqlik kiritish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

"Aslida, biz talabalarining nazar e'tiborini Yeshqobil Shukur she'rlariga "Shoirning ilk to'plami" ruknida bosilgan "Sochlari sumbul-sumbul" to'plami muhrlab qo'ygan edi.

"Sochlari sumbul-sumbul..." bu kitobchani hali shu kunga dovur o'qiyman, varaqlayman, gohida yodaki pichirlayman:

Aylanay gullarning tilidan,

Ko'zlarim ranglarga to'lmoqda.

Yuragimning uzun yo'lidan

Shirin-shirin(shakar) kunlar kelmoqda.

Suyganlarim, suyunchi bering.

Marhamat, bering suyunchi, azizlar!

She'r bunday bo'libdi..." (1.111)

Muallif va shoirning ilk uchrashuvi maqolada aytilganidek "*1987-yil. Talabalar shaxarchasi...Ilk tanishuv – shu (1.109)*" bo'lsa, yuqoridagi she'r bosilgan "*Sochlari sunbul-sunbul*" to'plami 1988-yil chop qilingan. Bunga ko'ra parchadan ikki xulosaga kelish mumkin:

Birinchi: "*Eshqobil Shukur degan shoir bilan tanishganimdan quvonib, saboqdoshlarga so'zlab yurdim*" (1.109) ko'rinadiki, Shoir bilan uchrashuv, u bilan suhbat maqola muallifida katta taassurot

¹ Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi



qoldirgan. Shu orada kitob chop qilinib o'quvchi ommasiga taqdim qilingach muallif suhbatlarda "Marhamat, bering suyunchi, azizlar! She'r bunday bo'libdi..."(1.111) qabilidagi quvonishning badiiy talqini o'laroq shoir she'ridan olingan parchani mohirona qo'llab, ham shoir uchun, ham o'zining ilmiy bashoratlari o'rinli chiqqani(maqtanib uyalib qolmagani) uchun quvongan bo'lsa ajabmas.

Ikkinchi: Parcha lirik qahramonning ruhiy holati tasviri o'laroq talqin qilinib birinchi she'riy to'planning chop qilinishi bilan bog'liq "shirin-shirin kunlar"ning kelgani uchun "suyganlaridan" suyunchi so'rashdek tushuniladi. Ammo to'plamdagi she'rlar yosh bir shoirning birinchi to'plami uchun har qancha maqtanishga, suyunchi olishga arzisa-da maqola muallif takidlagan shoirga xos ruhiy olam – kamtarlik – bunday xulosaga andak monelik qiladi.

Parcha har ikki holda tushunilganda ham "...yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanivchi..."(2.18) Biografik metodning natijasi o'laroq qimmat kasb etib, mohiyatga mos kelaveradi. Masala yuqorida ta'kidlanganidek she'rga bizning munosabatimiz xususida.

O'tgan asrning 80-yillar she'riyatiga xos bir umumiy manzara borki, bu manzara shu davrda faol ijod qilgan shoirlar she'riyatining katta qismiga dohildir. Bu jarayon shu davr she'riyatida Badiiy bashoratning faollashuvi bo'lib, bu jarayon she'riyatning ijtimoiylashuv fonida tabiiy bir jarayon o'laroq yuz berdi. Biz buni shartli ravishda "Mustaqillikning badiiy bashorati" degan bo'lar edik. Shartlilik shundaki, so'z borayotgan davrda voqelikning (Mustaqillikning) ayni qanday bo'lishi va qachon yuz berishi haqida faktlarga tayangan aniq tasavvur(bashorat uchun tabiiy hol) bo'lmagan. Unga xos xususiyatlar: mustabitning kuchsizlangani, jamiyatda yangi bir kuchning yetilib kelayotgani, qolaversa, bu o'zgarishlarning xalq tomonidan intiqlik bilan kutilayotgani kabilardan iborat(Bu xususida batafsil to'xtalish boshqa bir masala). Faqat jamiyatda kuzatilayotgan o'zgarishlar va kishilar tafakkurida yuz berayotgan yangilanishlarni teran nigoh bilan kuzatish natijasida yuqoridagi kabi umumiy xulosalar chiqarilgan. Ahamiyatli jihadi, vaqt o'tib bu xulosalar yuz bergan voqelikning yuzaga chiqish jarayoni va natijalariga to'la mos keldi, o'z isbotini topdi. Davrga xos ko'plab she'rlarni Sosiologik metod (*Bu metod negizida badiiy adabiyotga ijtimoiy hodisa sifatida qarash yetakchilik qiladi. Adabiyotni bu metod vositasida tadqiq yetishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar, madaniy muhit, adabiy-tarixiy shart-sharoitni inobatga olish hollari muhim sanaladi.* (2.30)vositasida tekshirilganda masala yanada oydinlashadi.

Mirzo Kenjabekning "Alpomishning Boysun-Qo'ng'irotda qaytishi"1986-1987-yillar(Ultontoz obrazi vositasida hoyinlarning kuni bitgani, xalq orasida o'zligina anglagan Alpomish yanglig' qahramonlarning yetishib qolgani), Matnazar Abdulhakimning "Jaloliddin"(Yurtga shu el farzandlari egalik qilgan davrlarni qo'msash) 1986-yil, Yaxyo Tog'aning "Ko'klam qaldirg'ochlari" (Mustabitning safari qarigani, Yorug' kunlarning yaqinligi, ammo uning ayni qanday bo'lishi xususida yaxlid xulosaning yo'qligi) 1986-yil yozilgan qator she'rlar yuqoridagi fikrlar dalili esa-da, bu she'rlarning obrazlar tizimi zich, yondashuvga ko'racha talqin qilish mumkin. Ammo E.Shukur nisbatan avvalroq 1984-yildagi bu she'rda ochiq-oydin ertangi yorug' kunlar daragini bergan va hech ikkilanmay "shirin-shakar" kunlar uchun "suyganlar"idan suyunchi so'ragan.

Fikrimiz dalili uchun she'rni bir boshdan ko'rib chiqaylik.

Yer kabi quyoshdan aylanay,

Tunlarim oylarga belanur.

Bir ajib to'ylarga shaylanay

Yuragim shodlikka uylanur.

Suyganlarim suyunchi bering.(3.4)

Ikkinchi misra she'r yozilgan davr siyosiy vaziyatining eng munosib tasviridir. Xususan, so'z borayotgan haqida tarixchilar "SSSR parchalanishining asosiy belgilari va ko'rinishlaridan biri ittifoq respublikalarining ittifoq markazidan ko'proq davlat(?) va iqtisodiy mustaqillikka intilishi edi. 80-yillar o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi ro'y bera boshladi."(4.212) Hali rasman mustamlakachi davlat boshqaruvi yakun



topmagan(lirik qahramon hayoti tunlardan iborat) bo'lsa-da, tasir kuchi kamaygan (tunga xos zulmat chekingan, ya'ni oy nurlari bilan yorug'lashgan). Hali "tong otmagan" bo'lsa-da, oydin kecha zimiston tundan ko'ra ancha yorug' mohiyat kasb etadi.

Birinchi misradagi "aylanay" so'zi xalqona ohanglar bilan aytganda mamnunlik, xursanchilik ma'nosini ifoda qiladi. "Aylanishning" yerning quyosh atrofida muttasil aylanishiga qiyoslanishi esa bu xursandchilikning davomiy bo'lishiga hohish bildirishni anglatadi. "Tunlarim nurafshon bo'ldi, shukur" jumlasida dastlabki ikki misraning umumiy mazmunidir. "Tun" – mustamlaka, yorug'lik – ertangi, she'r problemi dohil vaqtdagidan farqli, erkinlikning obrazi deyishga to'la haqlimiz. "Tun" obrazi vositasida mustamlakaga, yorug'lik obrazi vositasida esa yangi bir davrga ishora qilinganiga ijodkorning yana bir she'ri dalil bo'la oladi. Shoir o'zining 1994-yilda yozilgan "Assalom xudoning kunduzi..." she'rida "Xudoning kunduzi, senga assalom" (3.116) misralarini keltirgan. Bu she'rning mustaqillikning ilk yillarida yozilganini inobatga olsak, U qutlagan "kunduz" 1984- yilda nazarda tutilgan, umid bog'langan "kunduz" bilan intertekstual a'loqani hosil qiladi.

"Uylanish" sharq xalqlari urf-odatiga ko'ra bir umrga birga bo'lish obrazi. Uning shodiyona sifatida nishonlanishi to'y demakdir. Xalqimizning har qanday hursandchilikni uning yuqori ko'rinishi hisoblangan to'y obrazida ko'radi. "Shaylanish" esa badiiy bashorat iddaomizning isboti, ya'ni hursandchilik kunlar kelajakda bo'ladi va u biz bilan uzoq vaqt (ulyanish) saqlanib qoladi ko'rinishidagi xulosaga olib keladi. Yuz berajak o'zgarishlarga shoir ishonchini boshqa ijodkorlardan ko'ra yuqori baholashimizning sababi, u ishonchi komilligidan hatto "suyunchi so'rash" gacha yetib borganida. Yuqorida yorug' kunlar haqida so'z borayotganini isbotlashga uringan ko'rinarimiz, ehtimol, ammo, she'r davomida ijodkor bu mazmunni ochiqdan ochiq bayon qilgani yaqqol ko'rinadi.

Shirin-shakar kunlar kelmoqda

Suyganlarim suyunchi bering.

So'z borayotgan davrga xos yana bir xususiyat borki, bu davr kishilari orasidagi o'zaro guruhlanishdir. (M. Kenjabekning "Alpomishning Boysun-Qo'ng'irotda qaytishi" she'ri epigrafi ham ayni masala xususida) Ya'ni hamma ham yuz berishi mumkin bo'lgan yangilanishlarni qo'llab-quvvatlagan emas. Ayni shu sababga ko'ra lirik qahramon faqat "suyganlari(maslakdoshlari)" dan suyunchi so'raydi.

"Ko'zlarim ranglarga to'lmoqda." misrasi ham so'z borayotgan davr kishilari kayfiyatining belgilovchi nuqtalaridan biri bo'lib, u lirik qahramon ruhiyatida yuz berayotgan katta o'zgarishlarni anglatadi. Ya'ni lirik qahramon ko'zlarining ayni vaqtda "ranglarga to'lishi" uning avvalgi ruhiy holati bundan farqli "Oq-qora bo'yoqlar bizning bog'larda" (U. Azim misrasi) ko'rinishda bo'lgani bilan harakterlanadi.

Bu she'rning yaratilgan vaqt qaydini inobatga olmagan holda anglatgan mazmuni istalgan bayramlarimiz arafasidagi xalq kayfiyatiga(Masalan, nazarda tutilgan maqola kabi) mos kelaveradi. Vaholangki, bu she'rning yaratilgan vaqt qaydi inobatga olingandagi tahlili unda xalqning eng ongli qatlamigina anglab yetishi mumkin bo'lgan badiiy bashorat tasvirlanganidan dalolat beradi.

Bu asarga yondashuvlar(o'ylaymizki har ikki yondashuvda jon bor) orasidagi tafovvutni Adabiyotshunosligimizdagi quyidagicha o'rinli qarash bilan izohlash mumkin. *"Badiiy asar mazmuni ko'p qatlamli hodisa bo'lib, ulardan ikkitasi – aktual va tub estetik qatlamga ega. Aktual qatlam deyilganda asarning ijtimoiy-siyosiy mohiyati tushuniladiki, u bevosita asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy maqsadlariga qaratilgan bo'ladi. Ijodkor muayyan davr kishisi, u zamonasining muammolaridan forig' bo'la olmaydi, Atrofida yuz berayotgan hodisalarga o'zining g'oyaviy-hissiy munosabatini bildiradi – asar ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini ilgari suradi, asari bilan zamonaga muayyan ta'sir o'tkazish maqsadini ko'zlaydi. ... Mazmunning tub estetik qatlami esa, aktual qatlamdan farqli o'laroq, asar yaratilgan davrgagina qaratilgan emas – u davr kontekstidan ayro holda ham tushunilaveradi. (5.155)*

Xulosa qilib aytilsa, Asar yaratilgan vaqt qaydi mazmunni davr kontekstida anglashda eng muhim jihat bo'lib, u o'quvchiga ijodkorning ijod vaqtidagi ruhiy holatini to'la tushunishga va o'qish jarayonida



yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. She'r mazmuning variantlilikini kamayiradi va mazmunni konkretlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sharq yulduzi" jurnali 2022-yil 9-son
2. B. Karimov. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Muharrir. Toshkent, 2011
3. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. Sharq. Toshkent, 2002
4. M. Lafasof. Jahon adabiyoti. Toshkent, 2005
5. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Navoiy universiteti. Toshkent, 2018

